



RAQAMLI BANKLAR VA ULARNING AFZALLIKLARI

Narzullayeva Gulchehra Salimovna,

Buxoro davlat universiteti iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchi

Samatov Baxtiyor Baxodir o'g'li

Buxoro davlat universiteti

3-1IQTKT-20 guruh, 4-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlari tushunchasi, uning zamonaviy tijorat banklari faoliyatidagi roli va o'rni, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari, o'rganib chiqilgan va amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida raqamli bank xizmatlari haqidagi barcha to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, raqamli bank nima va takomillashtirilgan bank tizimi qanday yaratilganligi haqida tushunchalar berilgan.

Anotatsiya: В этой статье анализируются все собранные статистические данные о цифровых банковских услугах в практике коммерческих банков в Узбекистане. Кроме того, представлены понятие цифровых банковских услуг, их современная роль и место в деятельности коммерческих банков, основные направления развития цифровых банковских услуг, их преимущества, изучены и предложены практические рекомендации и советы. В статье также даны представления о том, что представляет из себя цифровой банк, как создана цифровая система банка.

Annotation: This article analyzes all the statistical data collected on digital banking services in the practice of commercial banks in Uzbekistan. In addition, it provides concepts of digital banking services, their modern role and place in the activities of commercial banks, key directions for developing digital banking services, their advantages, as well as studied and proposed practical recommendations. The article also gives insights into what a digital bank is and how a digital banking system is created.

Kalit so'zlar: Fintex, moliyaviy texnologiyalar, internet-banklik, Internet orqali taqdim etiladigan bank xizmatlari, mobil banklik, mobil qurilmalar orqali taqdim etiladigan bank xizmatlari, raqamli banklar, tezlik

Ключевые слова: Финтех (fintech) - финансовые технологии, банковские услуги через интернет, мобильное банковское обслуживание, цифровые банки, скорость

Keywords: "Fintech" - financial technologies, banking services through the internet, mobile banking services, digital banks, speed.

Keyingi yillarda jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi onlayn shaklda shiddat bilan tobora chuqurlashib, kengayib bormoqda. Ushbu



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

onlayn globallashuvning eng ko'zga ko'ringan va uning mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM)da ulushi oshib borayotgan yo'nalishi bu - elektron tijoratdir. Tabiiyki, tijorat bu pul-tovar munosabatlari hisoblanadi. Bu esa shu jarayon sub'ektlarining elektron to'lovlarga ehtiyojini shakllantiradi, ya'ni, turli to'lovlarni masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi bank xizmatlarini raqamlashtirishni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalar bilan iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish yuqori samaradorlikka erishish imkonini bermoqda. Shu boisdan, bugungi davr mutaxassislar tomonidan "raqamli iqtisodiyot" davri deb e'tirof etilmoqda. Vaholanki, ushbu raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida, balki, ijtimoiy sohalarda ham keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy sohalarda onlayn aloqa, onlayn ta'lim, elektron hukumat. Respublikamizda ham raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash va tannarxni pasaytirishga erishish bo'yicha keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu farmon bilan iqtisodiyot tarmoqlarini jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalari belgilab berilgan. Hususan, mazkur strategiya doirasida 2020-2022 yillarga mo'ljallangan «Yo'l xaritasi»da to'rtta asosiy sohani rivojlantirish nazarda tutilgan bo'lib, ular "Elektron hukumat", "Raqamli industriya", "Raqamli ta'lim" va "Raqamli infratuzilma"lardir. E'tiborli jihati shundaki, "Raqamli industriya"ni rivojlantirishda masofadan kredit mahsulotlarini realizatsiya qilish, omonatlar va hisobraqamlarni ochishni o'z ichiga olgan keng turdagi onlayn xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash orqali tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi to'liq amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bundan islohotlar natijasi o'laroq, 2020 yil davomida axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi 11121,9 mlrd. so'mni tashkil etib, bu 2019 yilga nisbatan qariyb 1,3 baravarga oshgan. Shundan, elektron tijoratning ulushi 602,0 mlrd. so'm bo'lib, 2019 yilga nisbatan 2,3 baravarga oshgan. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda raqamli bank xizmatlarini hamqaro tajribalar asosida yanada rivojlantirishni taqozo etadi va mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

O'zbekistondagi raqamli banklar sohasidagi faoliyatlar hozirgi kunda rivojlanish bosqichida joy olib borayotgan. Bu rivojlanishni ta'minlashga o'z qismini amalga oshiradigan muhim faktorlar mavjud:

«Qonunlar va tartibotlar» - Raqamli banklar rivojlanishini rag'batlantiradigan qonun va tartibotlar qabul qilingan.

«Internet foydalanuvchilarining sonining o'sishi» - Internet va mobil qurilmalar foydalanuvchilarining soni o'smoqda.

«Banklar tomonidan investitsiyalar» - Banklar yangi raqamli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqishda investitsiyalar kiritmoqdalar.

Raqamli banklar sohasidagi asosiy faoliyat yo'nalishlari quyidagilardir:

«Klassik bank xizmatlarini onlayn taqdim etish» - Hisob ochish, depozitlar, pul o'tkazish, to'lovlar, kreditlar, valyuta almashish kabi klassik bank xizmatlarini onlayn shaklida taqdim etish.

«Yangi innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqish» - Mobil qoplamalar, odamdan odamga pul o'tkazishlar (P2P), onlayn kreditlash, investitsion mahsulotlar, fin-tex xizmatlar kabi yangi innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqilmoqda.

Raqamli banklar sohasidagi faoliyat misollariga quyidagi misollar kiradi:

«Kapitalbank:» Kapitalbank Mobile ilovasi barcha asosiy bank operatsiyalarini bajarishga imkon beradi va foydalanuvchilar onlayn chat xizmatidan foydalanishlari mumkin.

«Ipak Yo'li Bank:» Ipak Yo'li Mobile bir qator bank xizmatlarini taqdim etadi, shu jumladan to'lovlar, pul o'tkazishlar, depositlar, kreditlar va boshqalar.

«Humo:» Humo Digital - O'zbekistondagi birinchi raqamli bank, uning faoliyati fizikaviy filiallarsiz amalga oshiriladi.

Raqamli banklarning afzalliklari quyidagilar:

«Qulaylik:» Jahonning istalgan joyidan foydalanuvchilar uchun 24/7 moliyaviy resurslarga kirish.

«Oddiylik:» Amallarni bajarish oson.

«Tezlik:» Moliyaviy operatsiyalarning tezlik bilan bajarilishi.

«Arzonlik:» Past to'lovlar.

«Shaxsiy tarzda xizmat ko'rsatish:» Maxsus takliflar.

«Innovatsiyalar:» Eng so'nggi texnologiyalardan foydalanish.

Qiyinliklar quyidagilardir:

«Fuqarolarning raqamli banklardan kam foydalanishi:» Fuqarolar raqamli banklardan qanchalik foydalanishlari haqida qaror qilishadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

«Onlayn-banklikka ishonch yomonligi:» Ishonch yo'qotish va ma'lumotlar ochiqligiga qarshi qo'rqinish.

«Infrastruktur rivojlanmaganligi:» Boshqaruv tizimlarining rivojlanmaganligi va internetga kirishni qo'llab-quvvatlashning qiyinchiligiga ega bo'lish.

«Kiber-xavfsizlik:» Onlayn ma'lumotlarni himoya qilishning qiyinchiliklari.

O'zbekiston raqamli banklar bozorining kelajagi yakunigacha rivojlanishi kutilmoqda.

Rivojlanishga ko'rsatadigan faktorlar:

- «Davlatning qo'llab-quvvati»
- «Internet kirishining o'sishi»
- «Fintex kompaniyalarining rivojlanishi»

Raqamli banklar O'zbekiston moliyaviy tizimida har safar ko'proq muhim o'rin egallaydi.

Raqamli banklar, ya'ni, internet orqali amalga oshiriladigan barcha moliyaviy operatsiyalar, xaridlar va savdo ishlari uchun qo'llaniladigan banklar, bugungi kunda jahon bo'ylab keng tarqalgan holda ommalashtirilmoqda. Raqamli banklar odamlar uchun ko'plab foydalanish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi:

Raqamli banklar, tranzaksiyalarni elektron shaklda bajarish orqali moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi institutlar hisoblanadi. Bu banklar, mobil ilovalar, internet bank tizimlari va avtomatlashtirilgan telefon xizmatlari orqali mijozlarga moliyaviy xizmatlarni taqdim etishadi. Raqamli banklar quyidagi faoliyatlarini o'z ichiga oladi:

1. Elektron mablag'lar o'tkazmalarini qabul qilish va amalga oshirish.
2. Hisobvaraqa ochish va boshqarish.
3. Kredit va kredit liniyalari berish.
4. Investitsiyalar va portfeyl boshqarish.
5. Xalqaro savdo va valyuta almashtirish.
6. Elektron to'lovlar va pullarni jo'natish.
7. Kartalar va elektron pul omonatlari.
8. Pul o'tkazmalari va pul mablag'larini olish.
9. Mobil bank xizmatlari va mobil ilovalar orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish.

Raqamli bankingda yuqoridagilardan boshqa bank ko'chirmalarini olish, pul mablag'larini o'tkazish, naqd pul yechib olish, hisob-kitoblar, tranzaksiya yozuvlarini kuzatib borish, yagona to'lovlar interfeysi, mobil hamyonlar, PoS terminallar va boshqa vazifalarni amalga oshirish mumkin.

So'nggi vaqtlarda banklar o'z mijozlarini raqamli bank xizmatlaridan imtiyozli stavkalarda foydalanishga faol jalb qilmoqda. Natijada mamlakatda raqamli bank



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

xizmatlari rivojlanishi yildan-yilga ortib borishi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanmoqda.

1-jadval

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchi jismoiny shaxslar soni (2023 yil 1 fevral holatiga)

№	Bank	Jismoiny shaxslar		O'zgarishi
		01.02.2022	01.02.2023	
1.	Milliy bank	1,333,805	1,416,441	82,636
2.	O'zbekiston sanoat-qurilish banki	2,698,356	4,805,182	2,106,826
3.	Agrobank	3,156,705	4,794,017	1,637,312
4.	Ipoteka-bank	1,846,664	2,237,575	390,911
5.	Mikrokreditbank	728,334	862,797	134,463
6.	Xalq banki	2,988,799	4,214,846	1,226,047
7.	Garant bank (Savdogar bank)	80,803	87,684	6,881
8.	Qishloq qurilish bank	366,370	365,024	-1,346
9.	Turonbank	239,970	309,848	69,878
10.	Hamkorbank	1,244,389	1,177,042	-67,347
11.	Asaka bank	911,019	903,035	-7,984
12.	Ipak Yo'li banki	1,026,332	1,495,049	468,717
13.	Ziraat bank Uzbekistan	33,137	40,740	7,603
14.	Trastbank	169,041	216,045	47,004
15.	Aloqabank	911,019	699,954	-211,065
16.	KDB Bank O'zbekiston	1,026,332	40,672	-985,660
17.	Soderot bank Toshkent	1,738	2,146	408
18.	Universal bank	96,990	108,296	11,306
19.	Kapitalbank	343,775	910,789	567,014
20.	Ravnaqbank	45,074	48,064	2,990
21.	Davr-bank	92,752	89,908	-2,844
22.	Invest Finance bank	361,599	426,355	64,756
23.	Asia Alliance bank	238,912	454,431	215,519
24.	Orient Finans bank	352,303	429,235	76,932
25.	Madad Invest bank	2,527	2,421	-106
26.	O'zagroeksportbank	352,303	1,318	-350,985
27.	Poytaxt bank	2,527	6,351	3,824
28.	Tenge bank	11,575	24,173	12,598
29.	TBC bank	361,325	1,025,219	663,894
30.	ANOR bank	580,429	2,737,921	2,157,492
31.	UZUM bank	-	1,570,000	1,570,000
32.	Hi-Tech bank	22,198	-	-
33.	Turkistonbank	15,509	-	-
	Jami	21,642,611	31,502,578	+9,897,674

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra shuni ko'rishimiz mumkinki, 2023 yil 1-fevral holatida 2022 yilning shu davriga nisbatan foydalanuvchilari soni keskin ortgan O'zbekiston sanoat-qurilish banki 2,106,826 donaga, Agrobank 1,637,312 donaga, Xalq banki 1,226,047 donaga, Kapitalbank 567,014 donaga va Ipak Yo'li banki 468,717 donaga ortganligi bu banklar mobil ilovalarini doimo muvofaqiyatli takomillashtirib borayotganligi foydalanuvchilar tomonidan bu ilovalarni tanlayotganlini anglatadi. KDB Bank O'zbekiston, O'zagroeksportbank va Aloqabanklarda esa foydalanuvchilar soni bir yil oldighngi holatga nisbatan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

kamaygan. Bu esa ushbu banklarda mobil ilovalarini takomillashtirishga e'tibor kam berilayotganligidan dalolat beradi.

Shuning uchun ham banklarni transformatsiya qilishning bugungi kundagi ahamiyati, qolaversa «ANOR BANK» AJ va «TBC Bank» ATB larning ilk raqamli banklar sifatida faoliyat boshlashi boshqa tijorat banklar uchun yangicha raqobotni taklif etdi. Bu innovatsion yondashuvga ega raqamli banklar xizmatlarni qulay, arzon va sodda qilish evaziga bank xayotini osonlashtirmoqda. Shu o'rinda «ANOR BANK» AJ va «UZUM» bank banklarida 2023 yil 1-fevral holatida 2022 yilning shu davriga nisbatan foydalanuvchilari soni keskin ortganligini ham qayd etish lozim. «ANOR BANK» AJ da foydalanuvchilar soni 2,157,492 donaga ortgan bo'lsa «UZUM» bank esa faoliyat ko'rsatyotganligiga 1 yil bo'lganligiga qaramasdan mobil ilovalaridan foydalanuvchilar soni 1,570,000 donaga yetganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Aksariyat banklar hozir ham onlayn xizmatlarni taklif qilsa-da, faqat raqamli banklarda bank xizmatlari butunlay elektron shaklda ishlab chiqilgan. Raqamli banklar (vertual banklar, neobank) jismoniy va hududiy joylashuvga tayanmagan holda raqamli platformalar orqali ishlaydi.

Barcha bu imkoniyatlar odamlarga rohatlik, tezlik va moliyaviy tajribani yaxshilashda yordam beradi. Raqamli banklarning kengayishi ommalashtirilayotgan, chunki bu texnologiyalar hayotimizning bir qismi bo'lib qolmoqda.

Bu kabi banklar, mijozlar uchun tezlik, sodda va qulaylikni ta'minlashni maqsad qiladi va avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali 24/7 xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan. Raqamli banklar, xavfsizlik so'rovlari va bank xavfsizlik tizimlarini o'z ichiga olgan, shuningdek mijozlar uchun yangiliklarni va eng so'nggi texnologik imkoniyatlarni taqdim etishda o'zaro hamkorlik qilishadi.

Raqamli banklar, tranzaksiyalarni elektron shaklda bajarish orqali mijozlar uchun bank xizmatlarini takomillashtiruvchi moliyaviy institutlar hisoblanadi. Ular, xalqaro savdo, pul o'tkazmalari, pul omonatlari, kreditlash, hisobvaraqa ochish, valyuta almashtirish va boshqa moliyaviy faoliyatlar uchun xizmat ko'rsatishadi.

Raqamli banklar, boshqa ko'plab banklardan bir nechta afzalliklarga ega bo'lishi mumkin:

1. Avtomatlashtirilgan xizmatlar: Raqamli banklar, avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali mijozlar uchun tezlik, sodda va qulaylik ta'minlashadi. Mobil ilovalar, internet bank tizimlari va avtomatlashtirilgan telefon xizmatlari orqali, mijozlar 24/7 xizmat ko'rsatishga ega bo'lishadi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

2. To'lovlar va pul o'tkazmalari: Raqamli banklar, elektron to'lovlar va pul o'tkazmalari orqali mijozlar uchun tezlik va xavfsizlikni ta'minlashadi. Bu, xususan onlayn do'konlarda va global savdo jarayonlarida xizmat ko'rsatish uchun juda qulaydir.

3. Ko'paygan chegirmalar: Raqamli banklar, yagona shaxs yoki tadbirkorlar uchun xizmat ko'rsatish bilan birga, korporativ mijozlar uchun ham katta chegirmalar taqdim etishadi. Bu korporativ hisob-kitoblarni boshqarish, korporativ kartalar va boshqa masofaviy xizmatlar orqali amalga oshiriladi.

4. Xavfsizlik: Raqamli banklar, xavfsizlik so'rovlari va bank xavfsizlik tizimlarini o'z ichiga olgan. Bu, mijozlar uchun kartalarini, hisobvarag'ini va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishda muhimdir.

5. Texnologik rivojlanish: Raqamli banklar, texnologik rivojlanishni yo'qotmay, katta miqyodagi IT loyihalarini o'rganib borishda va ularni joriy etishda o'zaro hamkorlik qilishadi. Bu, mijozlarga yangiliklarni va eng so'nggi texnologik imkoniyatlarni taqdim etishga imkon beradi.

Samarali yechim mijozlarga umumiy bank ehtiyojlari uchun to'g'ri echimlarni topishga yordam beradi. Kundalik tranzaksiya ehtiyojlari va bank xodimlari bilan shaxsiy munosabatlar uchun raqamli bank xizmatlari va ana'anaviy bank xizmatlaridan ham aralash ravishda foydalanish lozim. Banklar o'z mijozlarining moliyaviy savodxonligini oshirish, shuningdek, raqamli bank xizmatlarining soddalashtirilgan va tushunarli bo'lishini ta'minlash kerak. Banklar mijozlarning raqamli va ana'anaviy bank xizmatlaridan iloji boricha xabardor bo'lishi uchun marketing xizmatlarini yaxshi yo'lga qo'yishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы, (1), 115-118.

2. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

3. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.

4. Таирова, М. М., Абдуллаев, А. Ж., & Гиязова, Н. Б. (2016). Особенности маркетинга в агропромышленном комплексе. In Современное



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования (pp. 3871-3873).

5. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Роль маркетинга в сфере агропромышленного комплекса Узбекистана. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1616-1620).

6. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 7(7).

7. Odinayeva, N. F., Bakayeva, M. A., & Giyazov, B. B. (2022). Intellectuals with Higher Education in the Economy and Ways to Increase their Competitiveness. *Miasto Przyszłości*, 84-86.

8. Niyozova, I. (2021). The Transition to the Green Economy and the Importance of Strategy. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).

9. Niyozovna, N. I. (2023). Ways to Increase the Competitiveness of Enterprises through Digital Marketing Strategies. *European journal of business startups and open society*, 3(12), 154-157.

10. Niyozova, I. (2024). Improving the use of marketing strategies of enterprises in social networks. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 45(45).

извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/11592

11. "The 4 faces of digital marketing" American Marketing Association. August 22, 2019.

12. Сайфуллаева, М. (2022). Инновационные маркетинговые решения и их эффективность в определении ёмкости рынка строительной продукции. *Центр научных публикаций (buxdu. Uz)*, 25(25).